

Axrarova Zebuniso Baxromovna,
O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar
fakulteti "Pedagogik ta'lim" kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARINING TURKISTONDA XOTIN-QIZLAR SAVODI MASALALARIGA OID QARASHLARI

UO'K: 378.1:005/B

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_4_8](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_4_8)

AXRAROVA Z.B. JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARINING TURKISTONDA XOTIN-QIZLAR SAVODI MASALALARIGA OID QARASHLARI

Ushbu maqolada XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakati bo'lgan jadidchilik va ularning Turkistonda maktab-maorif sohasidagi faoliyatlari, yosh avlod ta'lim- tarbiyasi borasidagi harakatlari shu bilan birgalikda xotin-qizlar savodi masalalaridagi qizg'in kurashlari haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'z va tushunchalar: maktab maorif, jadidchilik, xotin qizlar savodi, ma'rifatparvarlik.

АХРАРОВА З.Б. ВЗГЛЯДЫ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА ПО ВОПРОСАМ ГРАМОТНОСТИ ЖЕНЩИН В ТУРКИСТАНЕ

В данной статье рассматривается просветительское движение джадидизма начала XX века, их деятельность в сфере школьного образования в Туркестане, усилия по обучению и воспитанию подрастающего поколения, а также их активная борьба за грамотность женщин и девушек.

Ключевые слова и понятия: школьное образование, джадидизм, грамотность женщин и девушек, просветительство.

AKHRAROVA Z.B. VIEWS OF REPRESENTATIVES OF THE JADIDISM MOVEMENT ON THE ISSUES OF WOMEN'S LITERACY IN TURKISTAN

This article discusses the Jadidism movement, an enlightenment movement of the early 20th century, and its activities in the field of school education in Turkestan. It covers their efforts regarding the education and upbringing of the younger generation, as well as their intense struggle for the literacy of women and girls.

Keywords and concepts: school education, Jadidism, literacy of women and girls, enlightenment.

Tadqiqotning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, bugungi ta'lim tizimi zamonaviy tendensiyalar, trendlar, texnologiyalar, metodlar bilan global ta'lim tizimining bir qismiga aylanib borayotgan bir vaqtda, tarixiylik, o'tmishda ma'rifatparvar allomalar qoldirgan buyuk meros saboqlarini o'rganish va xulosa chiqarish ham o'ta muhim hisoblanadi. Shu o'rinda jadidchilik harakati va uning ma'rifatparvar namoyandalari qoldirgan ulkan meros ham bugungi ta'lim tizimi uchun dolzarb muammolardan sanaladi. XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakati ijtimoiy hayotning ko'plab tomonlarini o'z ichiga qamrab oldi. Yangi usul maktablarini ochish, milliy teatr yaratish, gazeta, jurnal, kitob nashrini amalga oshirish ishlari birinchi galdagi vazifalardan sanaldi. Chunki bu tadbirlarning barchasi, eng avvalo, mustamlaka Turkiston ahlini ozodlik sari boshlash vositalaridan edi.

Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymaslik, ularni dunyoga teran ko'z bilan boqishga o'rgatish muammosi taraqqiyparvarlar uchun bosh masala sanaldi. Shuning uchun jadid maktablari, kutubxonalar, milliy matbuot keng quloch yo'yd.

Tadqiqotning maqsadi deb jadidchilik harakati namoyandalarning Turkistonda ayollar savodi masalalari va uning o'z davri sharoitida hal etish masalalarini o'rganish hisoblanadi.

Asosiy qism.

Turkiston jadidlari madaniy va ma'rifiy faoliyatlarida yangi usul maktablari ochish, yoshlarga qisman diniy va dunyoviy bilimlar berish bilan cheklanmadilar. Mustaqillik va istiqloq uchun kurash g'oyalarini ham ilgari surganlar. Shu yo'lda jadidlar xotin-qizlar masalasiga ham alohida e'tibor berib, dunyoviy ishlarni bajarishda xotin-qizlar ham erkaklar qatorida teng bo'lishlari kerakligini ta'kidlaganlar. Ular o'rtasida farq bo'lmasligi, teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlari kerakligini uqtirganlar. "Bugun insoniyat olamining tirikchiligi yolg'iz xotunlar soyasidaginadir deb aytsak, shoyad xato qilmagan bo'lurmiz. Xotunlar butun olam insoniyatining onasidirlar: payg'ambarlar, rasullar, podshohlar, olimlar, adiblar va shoirlar hammasi shul muhtaram volidalarning bolalaridirlar. Binoi alia xotunlar izzat-u va muhtaramdurlar. Shuning uchunki, islom dini xotunlarin eski zamonlarda huquqsiz va erlar qo'lida xor bo'lib turmaklaridin xalos etub, alarga keng huquqlar beribdur", deb yoz-

ilgan edi jadidlarning matbuot organi bo'lmish "Sadoi Turkiston" gazetasida. Shu o'rinda hikmatlardan quyidagilarni keltirish o'rinlidir: "Xotunlar ilmi bo'lmoqlari lozim. Ilmi bo'lmagan kishi tarbiya usulidai albatta mahrum bo'ladi. Bolalar tarbiyasi xotinlarga maxsus bir vazifa bo'lgani uchun tarbiya qiluvchilarning bilim darajalari yuqori bo'lmog'i taqozo etiladi"¹. Shuni ta'kidlash kerakki, Ismoilbek Gasprinskiy 1884-yil "usuli jadid" maktabini ochib, maorif tizimini isloh etish borasidagi g'oyalarini "Tarjimon" gazetasida e'lon qilib, maorif tizimi oldida hal etish kerak bo'lib turgan vazifalardan biri – qizlar maorifiga ham alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlagan².

Jadidchilik harakatining namoyandasi Abdurauf Fitrat esa kelajak avlodlarimizning ongsiz, irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil bo'lmasliklari uchun xotin-qizlar o'qimishli, sog'liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo'lishlari kerakligini zarur deb biladi. U tarbiyani juda muhim ijtimoiy hodisa, jarayon deb biladi va unda "oiladagi mushkul vazifa go'dak tavalludidan so'ngi er-xotin bo'yniga tushadigan farzand tarbiyasidir", – deb ta'kidlaydi³. Chunki avlod tarbiyasi – millat tarbiyasi deb, Fitrat "millat onasi" degan g'oyani o'rtaga tashlaydi va bunda millat kelajagini ko'radi.

Umuman, bola tarbiyasida ona asosiy rolni o'ynaydi. Bu haqda manbalar shunday guvohlik beradi: "Tarbiya axloqiyalari maktabdan ko'ra muhtarama onalar quchog'ida axtarilmog'i lozimdur. Bolalarimizni matlub darajada adablik va tarbiyatlik qilmoq xohishimda bo'lsak, ishda onalarimizni "ilmi tarbiya al-atfol"dan bahrador etmog'imiz, to'g'risi, bolalarimiz inson bolalari kabi bo'lsinlar desak, eng avval boshlab, onalarimizni tarbiya va ta'lim eta oling. Yo'qsa bolalardan, maktablardan momil bo'lgan foyda husula kelmas. Chunki oiladagi ishlarni, yumushlarni bajarib, ona bolalari bilan birga bo'ladi. Demak, jadidlar tarbiya bilan shug'ullanuvchi ayollar ham o'qib, bilim olishlari kerak, deb hisoblaganlar.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan otinchilik qizlar uchun boshlang'ich ta'lim vazifas-

¹ Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият. 2000. – Б. 5.

² Яна тўй масаласи. // Садои Фарғона. 1914. 8 июнь.

³ Анъаналар, дин ва аёлларнинг ижтимоий мақоми. // Ўзбекистон Республикасида хотин-қизларнинг аҳволи тўғрисида маъруза. Т.: Гендер ва ривожланиш, 1999. – Б. 24.

ini ado etdi. Ularga bibixalifa yoki bibiotinlar dars berganlar. Maktab yillarida qizlar o'z bibiotinlari boshchiligida asosan "Haftiyak"ni, Qur'onning 2-3 surasini o'qib o'rganganlar. Qur'onning boshqa suralarini esa uylarida o'rgatishgan. "Qizlar uchun ilm mutlaqo ortiqcha. Qizlarni tikish, bichish va to'qishga o'rgatinglar, o'qish va yozishni chetga surib qo'yinglar, – degan jamoatchilik fikrining mavjudligi adabiyotlarda keltiriladi. – Tarixiy bilimlar esa asosan payg'ambar va avliyolar haqidagi afsonalarni o'z ichiga oladi. Kamdankam qizlar o'qishga o'rgatiladi, undan ham kam hodisalarda – yozishga; ulardan ko'pchiligi asosan kunduzgi ibodat, namoz o'qish bilan band"– deb, shu davr maktab-maorifiga baho beriladi. Turkistondagi maktablarda qizlar ko'proq fors va turk she'riyatini o'rganib, yozuvga kam e'tibor berganlar. Maktablarni tugatishlari bilan qizlarning o'qishlari ham tugagan. Ularga umuman dunyoviy fanlar o'qitilmagan va dunyoviy ishlarga aralashish mumkin bo'lmagan. Ba'zi joylarda qizlar maktabi bo'lsa-da, ota-onalar bir yildan keyin qizlarining o'qishini to'xtatib qo'yar, odatda ularni juda yosh erga berib yuborardilar.

Biz bugun bu davrda qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan yana bir masala – hali tadqiqotchilarimiz e'tiboridan chetda qolib kelayotgan xotin-qizlar savodi, ularni qizg'in ijtimoiy-siyosiy faoliyatga jalb etish masalasi haqida fikr bildirmoqchimiz.

"Turkiston viloyati gazetasi"ning 1909-yil 29-noyabr sonida chop etilgan maqolada yozilishicha¹, Toshkent shahridagi musulmon qizlar o'qiydigan maktablardan birida teatr tomoshasi bo'ladi. Bu tomoshada musulmon qizlari yuzlari ochiq holda sahnaga chiqib rol o'ynaydi. Buni ko'rgan ikki musulmon erkakning rosa asabi qo'ziydi.

Ushbu maqolaga hamohanglikni gazetaning 1909-yil 64-sonidagi "О покривалах лица мусулманскихъ женщин" sarlavhali muallifi noma'lum maqolada² ham ko'rish mumkin.

Muallif yana bir voqeani keltiradiki, unda bir erkak yonidagi ayolning qo'lidan o'pib, musulmonlarga qarata sizlar ham ayollarga shunday munosabat qiling, deb go'yoki o'rnak ko'rsatadi.

"Bizning bul tariqa xohish va niyatimiz yo'qdur", deb ajablanadi muallif.

Ko'rib o'tganimizdek, bunday maqolalarning barchasida ham ayollarning oddiy turmush tarzlar, ijtimoiy ahvollari haqida so'zlashdan nariga o'tilmaydi.

Xotin-qizlar savodi masalasi o'sha davr tafakkur taraqqiyotida buyuk o'zgarishlar yaratgan jadid namoyandalarini ham o'ylantirgan muammolardan biri edi. Jadidlar ushbu masalani millat ozodligi, vatan taraqqiyoti singari buyuk "dard" sifatida qabul qildi. Bu dardga malham qidirishni kun tartibiga qo'ya bildi. Ilmda etuk farzandlar tarbiyalash vazifasini etakchi o'rinlarga qo'yar ekan, albatta, bu o'rinda onalar, ayollarning xizmati yuksak bo'lmog'ini uqdirgan. Gazetadan minbar sifatida foydalanayotgan jadidlar "Turkiston viloyati gazetasi"da e'tiborga sazovor maqolalar e'lon qildilar.

Shulardan biri "Xotunlarg'a ilm lozummu?" sarlavhasi bilan chop etilgan maqoladir³. Uning muallifi qo'qonlik Fayzulla afandi Turkiston ayollarining haqiqiy ahvoli-ruhiyasi haqida jon kuydirib yozadi. "Bizda faqat xotinlarni odamlar ko'zidan yashirmoq kerak yoki ularni nikohlab xotin qilmoq kerak, degangina qashshoq tushuncha bor, xolos. Xotinlar, avvalo, bizning onalarimiz, bizning och-yalong'ochligimizdan boxabar bo'lib, birovlarga haqorat qildirmay o'stiradi. Shunday buyuk zotlarimiz esa ilmsiz. "Agar biz olima, musulmalar tarbiyasun ko'rgan bo'lsak, to norasida vaqtimizda aqlimizg'a odam va rivoji islom birlashgan bo'lsa, qalbimizga hamiyat va diyonat hissi o'rnashqon bo'lsa, bilmak va bildirmakni ma'nisidin xabarimiz bo'lsa, ... nima uchun bu kunga qolub ilm dushmani, insoniyat zarari o'lur eduk?", degan savolni o'rtaga tashlaydi. Muallifning o'zi ham bu savol atrofida fikr qilib, javob qidiradi: "Demakkim, bizning doimo yonimizda bo'ladigan ham, tarbiya berib, ertalab maktabga kuzatuvchilar ham onalarimiz ekan, xo'sh ular "tarbiyai atfol"ni qayerdan o'rgandilar? Erlaridanmi? Axir, erlarining o'zlari ilmsiz bo'lsa... Yoki muallima otinbibilardan o'rgansin deysizmi? Bu muallimlar qaysi dorilma'lumotda o'qublar, qaydan tahsili ilum funun qildilarki, kelsunlar-da hamjinslarin rioya haqqa targ'ib qilsunlar", deydi va o'z maqolasini quyidagicha xulosalaydi: "Bizlar mundog' bo'lg'onchiq jaholat-u xom-xayolot

¹ Тожибоев Р. Маърифат фидойиси. // Соғлом авлод учун. 1999. №4-5. Б. 46.

² Туркистон вилоятининг газетаси. 1910. 23 май.

³ . Садои Туркистон. 1914. 30 май.

uyasidan chiqub-da bu asr taraqqiyda na ila millatni va oning obro'yini muhofaza qila olamiz". Muallif bu borada Turkistonning ko'zga ko'ringan taraqqiyparvar ulamolarini bahsga chorlaydi: "Mashhur Turkiston ulamosi va ahli qalamlardin Fozil mulla Olim maxdum va Mahmudxoja afandilardin bu masala xususida fikrlarun yozmoqni istarjo aydaman"¹.

Albatta, Mahmudxo'ja Behbudiy bu maqolani bee'tibor qo'ymay, gazetaning sentabr sonida "Feleton" rukni ostida "Fayzulla afandiga javob" sarlavhasi bilan xat yo'llaydi². Muallif maqolada Turkistondagi bugungi ahvol, ilm-ma'rifatga munosabat haqida uzoq to'xtaladi. Ilm-u ma'rifatga musulmonlarning munosabati umuman pastligidan iztirobga tushadi. "Men ko'pdan beri ijtimoiy-ma'rifiy maqolalar yozib kelaman. Lekin ba'zilar bu maqolalarimda "siyosat"ni ko'proq ko'ribdi. Ba'zi millatlar esa mendan xafa emishlar, go'yoki men ularni yerimizni va ishimizni tortib olyapti, deb yomonlagan emishman. Hattoki, men raislik qilayotgan Samarqand kutubxonasiga Qur'oni Karimni qo'ymas emush, deb ham fitna qilishmoqda", deydi Behbudiy kuyunib. Ahvol shunday ekan, xotinlarni ilm-u ma'rifatga tortmoq masalasini o'ylab ko'rmoqning o'zi ham ancha mushkul, degandek kinoya qiladi. Ilm olmoqning barchaga barobar farz qilinganligini o'z maqolasida "har bir muslim va muslima ilm olmoqlari farzdur", iborasini keltirib ta'kidlaydi: va "...jinsi latifg'a ijro taklifot sha'riasini aytmoqqa ilm va o'quvdan boshqa bir sabab yo'q ekan va bu taklifotni imdaosi va fardi komili o'quv ekanlig'iga va xotunlarni o'qumoqlari lozimiga aytsa, yolg'uz ko'r va yo munofiq, mutaassib inkori boshqa aydar azizim".

M.Behbudiyning ma'rifiy qarashlariga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, xotin-qizlarni ilm-u urfonga jalb etish masalasi etakchi o'rinlarda turganini ko'ramiz. Xotin-qizlarni endi, dorilmuallimin va dorilfununlarga tortish vaqti etgan edi. Bu borada muallif o'zining gazeta va jurnali orqali targ'ib-tashviq ishlarini keng quloch yoydirdi. Masalan, "Samarqand" gazetining 1913-yil, 34-sonida "Muslimalar uchun maktab" degan xabar bosil-

gan³. Bunda turkiyalik muallima Fayziya Abdulrashid: Janobi haqning inoyati ila bu yil qizlarga xususiy maktab ochduk va bu yil martdan e'tiboran ibtidoiya sho'basiga shogirdlar qabul eta boshladik. Ushbu ishdan maqsadimiz shaxsiy foyda bo'lmay, faqat jamiyati bashariyag'a xizmat etmak va olami islomga tarbiyali va ma'lumotli onalar etishturmakdur", deydi.

Darvoqe, ushbu maktabga chet mamlakatlardan ham qizlar qabul qilinayotgani yozilgan. Asosan, musulmon o'lkalaridagi qizlarni ilm-u ma'rifatga chorlash, ulardan ham zamonaviy, ham diniy ilmlarda mukammal "onalar"ni tarbiyalamoq ishi asosiy vazifalardan biri sanalardi. Xabarda maktabda shu kungacha Misr, Eron, Hindiston, Qrim kabi mamlakatlardan kelgan qizlar tahsil olayotganligi ma'lum qilinadi.

Muallima Fayziyaxonim turkistonlik qizlarni ham ushbu maktabga taklif etib, murojaat uchun manzilin e'lon qiladi. Behbudiyning gazeta va jurnalida bunday xabar va maqolalar ko'plab e'lon qilinar edi. Yana bir narsani ta'kidlamoq kerakki, Behbudiy o'z qizi Parvinning ham ilm-tahsilida bee'tibor bo'lmagan. Parvinni yoshligida o'sha vaqtlarda mashhur bo'lgan va Behbudiyning o'zi bevosita hamkorlikda ish yuritgan muallim Abdulqodir Shakuriyning usuli jadid maktabiga o'qishga bergan. Uni zamonaning barcha ilmlaridan boxabar qilishga harakat qilgan. Ma'lumki, Behbudiy har vaqt zamonaning etakchi tillarini o'rganmoq masalasini targ'ib qilgan. Qizi Parvinga ham shaxsiy o'qituvchi yollab, fransuz tilidan saboq oldirgan.

Parvin umrining oxirigacha Samarqand tumanining maktablaridan birida fransuz tilidan dars berib kelgan. Jadidlar yangi usul maktablarini ochib, ularda o'g'il va qiz bolalarning birga o'qishlarini tashkil eta boshlaydilar. O'z davrida Abdulla Avloniy shunday deydi⁴:

*O'g'ul-qiz o'qusa bo'lur olim,
Johil odamlar bo'ladur zolim.
Baxt-u iqbol ilma bog'liqdur,
Ilm o'qutmoq ahsan a'molim.*

¹ Зохирий А. Андижонда мусулмонча театр. // Садои Туркистон. 1914. 20 июнь.

² Ризаев Ш. Жадид драмаси. // Масъул мухаррир Н.Каримов. – Т.: Шарқ, 1997. Б. 68.

³ "Muslimalar uchun maktab" Samarqand". 1913-yil, 34-sonida.

⁴ Avloniy A. Oila munozarasi. Tanlangan asarlar. T-2. – T.: Ma'naviyat. 1998. B.135.

Shunday maktablardan birida Abdulqodir Shakuriy Samarqandda o'g'il va qiz bolalarni birga o'qita boshlaydi. Qizlarga uning xotini dars berishga ko'maklashgan. Abdulqodir Shakuriyning bunday ishi mahalliy boylar, ruhoniylarning noroziligiga sabab bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, bunday maktablar Turkistonning boshqa shaharlarida ham ochila boshlagan. Arxiv hujjatlarida yozilishicha, Toshkentdagi Eshonxo'ja Xonxo'jayev yangi usul maktabida 3 ta qiz, Sobirjon Rahimovning maktabida 15 ta qiz o'qigan. Ho'qand shahrining G'alchasoy mahallasida Muhammadjon Xoliqiy 1913-yilda dastlab "usuli jadid", keyin esa qizlar maktabini ham tashkil qilgan. Unda singlisi Soliyaxon Abduxoliq qizi talabalarga saboq bergan¹.

Abdulla Avloniy maktabida ham qizlar o'g'il bolalar bilan yonma-yon o'tirib, tahsil olgan. Ostroumov bergan ma'lumotga ko'ra, "imtihon berganlar savollarga ko'p yaxshi javoblar berib, imtihonga borguchilarni diqqatini jalb etib, mazkur shogirdlar haqig'a ko'p duolar qildilar va xususan, bir yosh qiz-shogirdga istehson qildilar". Yuqorida ko'rsatilgan Sobirjon Rahimovning "Rahimiya" maktabida o'tkazilgan qiz bolalar imtihonidan so'ng "Toshkand xabarlarini"ning muallifi "qiz maktablarimizning adadlarini ko'paytirmoqni" so'raydi².

Buxoro jadidlari yo'l boshchilaridan biri Sadridin Ayniy ham dastlabki o'qish yillarini qizlar maktabida o'tkazgan. "Maktab yoshiga etganimda o'zi o'qitishga vaqti bo'lmagan og'am bizni qishlog'imiz – Soktare masjidi qaramog'idagi maktabga berdi. U maktabda biror narsa o'rgana olmadim, shundan keyin otam meni bu maktabdan olib, qishloq imomi xotiniga qarashli qizlar maktabiga berdi. Bu maktab o'g'il bolalar maktabiga qaraganda bir-muncha durust edi". Ma'lumotlarga ko'ra, qizlar 7 yoshdan o'qishni boshlab 13 yoshga to'lganda tugatganlar³.

Tavalloning "Qarindosh va hamshiralimiz mazluma qizlar tilindan" she'rida qizlar ulardan "halokatdan", "malomatdan" qutqarishni – o'qitishni, erk va hurliq berishni so'raydilar.

Hattoki, kelajak oila, teng va saodatli, muhabbatli va sadoqatli turmush masalasini o'rtaga qo'yadilar. Holbuki, "xuddi shu yillarda o'lkaning eng e'tiborli jurnallardan biri – "Oyna" "xotin olami vujudga fidoyi o'lmak uzra kelmish bir maxluqi latifdur" deb yozgan bo'lsa eng obro'li shoirlardan biri esa "Qaysi xotunkim, ochiq yuzdur, bil fohishadur" deyishgacha borgandi. Va bu hukmron nuqtayi nazar edi", – deb yozadi jadidlar faoliyatining tadqiqotchisi B.Qosimov. Jadidlar shunday og'ir sharoitdan xotin-qizlarni olib chiqish uchun intildilar. Ular uchun maktablar ochdilar, kutubxonalar tashkil etdilar. Bu harakatlarni mablag' bilan ta'minlash uchun yo'llar qidirdilar. Shunday yo'llardan biri – teatr orqali edi. Masalan, 1914-yilning 6-iyunida Andijonda qo'yilgan "Padarkush" spektaklidan tushgan mablag' 1500 so'mni tashkil etib, shundan 20 foizi Andijonda qurilayotgan "qizlar gimnaziyasi" foydasiga berilgan, deb xabar beradi "Sadon Turkiston" gazetasi⁴.

Ma'rifatparvarlar Turkiston xotin-qizlarining dunyoviy ishlarda qatnashishlarini yoqlab chiqa boshladilar. Miyon Buzruk Solihov "O'zbek teatr tarixi uchun materiallar"⁵ kitobida keltirilgan suratda 4-raqamda Ma'sumaxonim qayd etilgan. Ma'lum bo'lishicha, bu ayol keyinchalik o'zbek sahna san'atining mashhur namoyandalardan bo'lgan O'zbekiston xalq artisti Ma'suma Qoriyevaligi ma'lum bo'lgan. U "Turon" truppassidagi ilk aktrisalaridan edi. Demak, Toshkent teatri jamoasi sahnaga ayol aktrisini olib chiqishda ham birinchi bo'lib tashabbus ko'rsatgan. Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, "Turon" truppassi muntazam ishlovchi, professional jamoa sifatida ijodiy o'sish, yangiliklar izlashga harakat qildi. Xalqning madaniy-ma'rifiy saviyasini ko'tarish yo'lida yangi shakllar topishga urindi, tashabbuslarga dadil jur'at qila oldi.

Jadidlarning qarashlarida jamiyat rivojlanishini to'xtatayotgan xotin-qizlar ijtimoiy hayoti bilan bog'liq illatlar: ma'rifat qoloqligi, qayg'u-kulfat, urug'chilik va o'rta asrdan saqlanib qolgan munosabatlardan qutulish yo'l-yo'riqlari o'z aksini topgandir. Jadidlar fikricha, xotin-qizlar o'z ayollik huquqini anglashi, talab qilishi, tiklashga intilishi, uni tuban kimsalardan

¹ O'zR MDA, 1-I-fond, 31-ro'yxat, 943-ish, 23-varaq.

² O'zR MDA, 47-I-fond, 1-ro'yxat, 1148-ish, 149-orqa varaq.

³ Tojiboyev R. Ma'rifat fidoyisi. // Sog'lom avlod uchun. 1999. № 4-5. B. 46.

⁴ Turkiston viloyatining gazetasi. 1910. 23 may.

⁵ Sadoi Turkiston. 1914. 30 may.

himoyalashi jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lishi uchun diniy va dunyoviy bilim imkoniyatlaridan foydalanish sharoitlari yaratilishi zarur. Ma'rifatsiz jamiyatda o'zboshimchalik, jabr-zulm, adolatsizlik, johillik, zo'ravonlik hukmronlik qiladi. Jamiyatdagi bu tubanlik birinchi galda ayollar hayotida tezroq va to'laroq o'z aksini topadi.

Xulosa. Jadidlar dunyoqarashida ayol yor, ona, mehribon do'st, ijtimoiy zulmga uzoq vaqt bardosh bergan, unga qarshi kurashini

to'xtatmagan va undan g'olib chiqqan, dinning uni чекловчи баъзи ta'limotini jur'at bilan parchalab tashlagan qahramon inson sifatida namoyon bo'ladi. Turkistondagi ayollar qismati deyarli barcha jadid ma'rifatparvarlarining tafakkurida o'z ifodasini topgan. Bu g'oyalar Turkiston xalqlarining milliy uyg'onish, milliy taraqqiyot yo'lida to'g'anoq bo'lgan o'tmish sarqitlaridan xalos bo'lib, ma'rifat manzillarini egalashi bilan bog'liq g'oyalardir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Oila munozarasi. Tanlangan asarlar. T-2. – T.: Ma'naviyat. 1998. B.135.
2. O'zR MDA, 1-I-fond, 31-ro'yxat, 943-ish, 23-varaq.
3. O'zR MDA, 47-I-fond, 1-ro'yxat, 1148-ish, 149-orqa varaq.
4. Tojiboyev R. Ma'rifat fidoyisi. // Sog'lom avlod uchun. 1999. № 4-5. B. 46.
5. Turkiston viloyatining gazetasi. 1910. 23 may.
6. Sadoi Turkiston. 1914. 30 may.